

## ARXITEKTURA VA SAN'ATNING UYG'UNLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11061348>

**Gulmirzayev O'ktamjon Abduraximovich**

*SamDAQU "San'at" kafedrasi o'qituvchisi*

### Annotation

Ushbu maqolamda siz arxitektura va san'atning ko'p qirraliligi, u muayyan vazifalarga mo'ljallanib tashkillashtirilganligi, ichki muhitli binolar, binolar ansambl va kompleksi, shaharlar, qishloqlar arxitekturaning maqsadi insonlarning yaxshi, qulay, kamfort muhitda yashashi, ishlashi va dam olishiga mo'ljallanganligi va shu maqsadda tashkillashtirillishi, insonlarga ijobiliy muhitni shakllantirishi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Qolaversa ,san'at arxitekturaning yanada bejirimligini badiiy, dekorativ bezatish jarayonlarida bevosita katta ahamiyatga ega ekanligi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

### Kalit so'zlar

Arxitektura, san'at, arxitektor, me'morchilik, tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy, badiiy estetik, jamiyat, badiiy, dekorativ bezak, konstruktsiya.

Inson faoliyatining qadimiyligi va nafis sohalaridan biri bu arxitekturadir. Arxitekturaga ta'rif bermasdan avval, "arxitektura" so'zining kelib chiqishiga nazar tashlaylik. So'z ildizi "tektura" qurilish san'ati ma'nosini berib, "arxi" qo'shimchasi esa oliy, yuqori darajada degan ma'noni bildiradi. Arxitektura - bu binolar kabi tuzilmalarni loyihalash va qurish san'ati va amaliyoti hisoblanadi. Bu asrlar davomida mavjud edi, lekin bugungi kunda u o'zgarmoqda endi arxitektorlar nafaqat konstruktsiya dizayni bilan shug'ullanadilar balki ular biz qanday yashayotganimizni va atrofimiz bilan qanday munosabatda bo'lishni kashf qilmoqdalar va bunin g uchun alabtta san'atning kata ahamiyatga eka ekanligi haqida unutmaganim maqsanga muofiqdir.

Demak, "arxitektura" – qurilishning yuqori bosqichi, ya'ni oliy darajadagi qurilish demakdir. Aynan shu ma'noda «arxitektor» o'zbek tilidagi "me'mor" so'ziga yaqin turadi. Shuning uchun ham arxitekturaga nisbatan me'morchilik atamasi keng ishlatiladi. Arxitektura qurilish san'atining oliy darajasi, biroq har qanday qurilishni ham arxitekturaga tenglashtirish yoki o'xshatish mumkin emas. Chunki qurilish juda keng qamrovli so'z bo'lib, arxitekturaga mos bo'limgan ayrim sohalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, temiryo'1 qurilishi, yerosti quvurlari yoki

shaxtalar qurilishi va hokazo. Demak, har qanday qurilish ham arxitektura bo'la olmaydi, lekin har qanday arxitektura negizida, avvalambor, qurilish yotadi.

Qurilishning arxitekturaga aylanishi uchun u yuqori darajadagi san'at namunasi yoki asari tarzida yaratilishi kerak. Arxitekturani inson amaliy faoliyatining boshqa turlaridan, shu jumladan, qurilishdan farqi shundaki, u foydalilik masalalaridan tashqari, muayyan tarixiy va ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda davr ehtiyojlarini qondiruvchi mafkuraviy va badiiy estetik vazifalarni ham bajaradi. Arxitekturaning hozirgacha qabul qilingan ta'rifi shunday: arxitektura – inson va jamiyat faoliyati, insonning maishiy turmushi, mehnati, umuman hayoti uchun fazoviy muhit yaratish san'atidir. Bu yerda "fazoviy" deyilganda kosmosni emas, balki yer sathi ustida quriladigan obyektlar joylarni nazarda tutiladi. Bunday fazoviy muhit yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. U chegaralovchi, belgilovchi (devor, tom, to'siq, panjara, dov-daraxt, tosh kabi) strukturalar yordamida tashkil etiladi. Masalan, Toshkentdagi "Moviy gumbazlar" qahvaxonasi yoki uning yonidagi choyxona binolari g'isht, beton va oyna, to'siq-devor, pol va tom (gumbaz ham tomning bir turi) yordamida atrofdan chegaralanib, yopiq fazoviy muhit hosil etilgan. Bu yerdagi xiyobonda tok va so'ri ostida ham qisman chegaralangan muhit hosil qilingan. Bundan farqli holda choyxona oldidagi sufa-so'rilar gorizontal tekislik bo'yicha ochiq muhitga ajratilgan. Sayr yo'llari ham ochiq muhitdir. Ular daraxt, buta, maysa, plita, tosh, suv basseyni, favvora kabilar yordamida rejalangan. Yana shuni aytish joizki, arxitektura va san'at bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Aslini olganda bu ekalasi ham o'zining yaratilishi jihatidan, inson ijodiy faoliyatining maxsuli hisoblanadi.

Arxitekturaning maqsadi insonlarning yaxshi, qulay, kamfort muhitda yashashi, ishlashi va dam olishiga mo'ljallanib tashkillashtirilgan makonni yoki muhitni shakllantirish bo'lsa, san'at esa insonning shu muhitni badiiy, dekorativ bezatishdan iboratdir. Biroq, uning vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, har qanday muhit odamlar ongingin shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki arxitekturada qo'llaniladigan hajmiy shakllar, moddiy muhit biron bir jozibali ko'rinishga yoki axborotga ega bo'ladiki, ular odamlar didiga, ongiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Arxitekturaning vazifasiga ana shu muhitda insonlar uchun o'ziga xos qulaylik va shinamlik yaratishgina emas, balki insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini qondirish, u yashayotgan jamiyat madaniy hayoti, xalqchil milliy an'analari va ilg'or estetik tuyg'ularini o'zida aks ettirish kabi vazifalar ham kiradi. U insoniyat jamiyati yashash va dam olish vositalarining qanchalik zaruriy qismlari (turar-joy uylari, jamoat binolari, bog' va parklar, xiyobonlar va boshqalar) dan tarkib topsa, xuddi shuncha ishlab chiqarish vositalari

(zavod va fabrikalar, elektr va issiqlik stansiyalari, ishlab chiqarish korxonalari) dan ham tarkib topadi.

Umumiy ma'noda arxitektura va san'at – bu insoniyatning yashashi va faoliyati uchun sun'iy shakllantiriladigan, amaliy va ma'naviy ehtiyojlarga mo'ljallangan moddiy muhitlar tizimidir. Ayni paytda, arxitektura bu san'at hamdir. Shu boisdan arxitekturada muayyan hayot tarzi, davr tafakkuri va talabi, muayyan estetik va mafkuraviy ehtiyojlar, g'oyalar majmuasi o'zining moddiy va badiiy ifodasini topadi.

Arxitektura va san'at ko'p qirralidir u muayyan vazifalarga mo'ljallanib tashkillashtirilgan ichki muhitli binolar, binolar ansamblsi, shaharlar, qishloqlar, maxsus tashkillashtirilgan tashqi ochiq muhitlar (ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, parklar, mahallalar, dahalar) dan tashqari, ichki muhitga ega bo'limgan, biroq ochiq muhitni tashkillashtirishga xizmat ko'rsatuvchi inshootlar va mo'jaz me'moriy shakllar (monumentlar, obelisklar, tasviriy oynalar, ko'priklar, yo'llar, sohillar, ko'prik yo'llar (puteprovodlar), transport chorrahalar (razvyazkalari), favoralar, zinapoyalar, to'siqlar va sh.k.) hamdir. Ana shu nuqtayi nazardan olib qaraganda arxitektura jamiyatning ijtimoiy, ishlab chiqarish va mafkuraviy ehtiyojlaridan vujudga keluvchi moddiyatdir. Aynan ana shu ehtiyojlar arxitektorlar oldiga aniq vazifalar qo'yadi. Yaratilgan arxitektura jamiyat va uning ma'lum bir davrining moddiy va ma'naviy madaniyatini belgilaydi, o'zida aks etadir.

Ma'lumki, mamalakatimizda olib borilayotgan ko'plab ma'muriy va fuqorolik inshootlarining qurilishi, ularning dizayni va me'moriy elementlariga, interyeriga katta e'tibor berilmoqda. Har bir bino yoki inshootlarni qurish uchun uning tasvirini, chizmasini chizib olib, so'ogra shu chizmalar, loyihamda qurilish ishlari amalga oshiriladi.

Arxitekturani bezashda mahobatli rangtasviming bir necha turlari mavjud: ya'ni, alfresco (fresco, temperali rasm), rim mozaikasi, florensiya mozaikasi, sgraffito, rangli suvoqli inkastatsiya, rangli levkas, klassik vitraj, alyuminiy armaturali vitraj, elimlangan vitraj, betonli vitraj, quyma vitraj, mozaikali vitraj, kundal, silikatli rang-tasvir va boshqalar hisoblanadi. Bu turlardan foydalanishda binoning vazifasiga, joylashishiga, muhitiga qarab belgilanishi mumkin. Har doim arxitektor bilan hamkorlikda arxitektura va mahobatli rangtasvir sintezi, uyg'unlik muvoffaqiyatli amalga oshirilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin. Natijalar: Har bir davr arxitekturasida ular yangicha hayotda yashay boshladи. Interyerda mahobatli rangtasvirda san'at mavzusi alohida o'r'in tutadi. Chunki, san'at keng

ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql -idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir.

San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. san'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. O'zbekiston hududida, Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa bir qator qadimiy o'lkalarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan ham nafosatli qiymatga ega. Bu yodgorliklar badiiy faoliyat kurtaklari endigina ko'rinishi kelayotgan inson nafosatli faoliyatining natijalari edi.

Hozirgi kunda har bir xalqning , har bir millatning zamonaviy san'ati va an'anaviy san'atining uyg'unlashtirish ularni binoda tasvirlash uchun o'sha xalq an'analari, urf odatlari, xalq o'yinlari, bayram va tadbirlari alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham rassom(manumentalist) yuqoridagi xalq ma'naviyatiga, urf odatlariga aloqador udumlar, o'yinlarni yaxshilab o'rganishi ushbularni his qila olishi shartdir. Ularni zamonaviy san'atga bog'lagan holda san'atkor o'z kompazitsiyasida badiiy tasvirlashi kerak.

Badiiy madaniyat murakkab tizimdan iborat bo'lib, unda san'at turlari muhim o'rinn tutadi. San'atning ayrim turlarga bo'linib ketganligi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot xosilasi bo'lib, qadimda badiiy faoliyat sohalariga - turlarga bo'linmagan edi. Keyinchalik san'atning bir necha turlari qaror topdi. San'at turlari san'atga xos bo'lgan umumiyligi belgilarga ega bo'lib, ularning har biri: adabiyot, me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at va shu singari muhim ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, arxitektura va san'at bir biri bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda ular kompazitsiyasida barcha tashqi muhit va kompozitsiya binosi, binoning qaysi millat yerida joylashgani inobatga olingan holda uning kompozitsion mavzusini har taraflama o'sha xalq an'ana va qadriyatlariga mos tarzda tanlaniladi va bunga qo'shimcha tarzda arxitektor va rassom o'z idealarini, loyihibalarini, tasviriy didini qo'shimcha qilib, mukammal san'at asarini yaratishi lozim. Arxitektura va san'at - bu doimo rivojlanayotgan dinamikadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- . Urinboev, S., & Barnayeva, S. (2023). Principles of Development of Fine Arts in Central Asia. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(4), 45-48.
2. Уринбоев Шакарбай Элибоевич, Назарова Дильшода Мустафаевна. (2023). ЭРОН, АФГОНИСТОН ВА ХИНДИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АРХИТЕКТУРАСИ. Международный журнал по образованию, социальным и гуманитарным наукам. Издательство академических исследований Финляндии, 11(4), 482-487. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7812410>
3. Шахло Барнаева | Шакарбай Уринбаев «Творческая триада в художественной жизни Самарканда 30-х годов XX века» Опубликовано в Международном журнале тенденций научных исследований и разработок (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Спецвыпуск | Инновационное развитие академических исследований и разработок во время Covid 19, май 2021 г., стр. 9-10, URL: <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd43707.pdf>
4. Ёркулов Тўлаган Хамидович. (2023). ҲАЙКАЛТАРОШЛИК САНЬАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ. Международный журнал по образованию, социальным и гуманитарным наукам. Издательство академических исследований Финляндии, 11(4), 723-727. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7824398>
5. Gulmirzayev Uktam Abduraximovich. (2023). UMUMIY OVQATLANISH VA TO'YXONALAR OB'YEKTALARINING SHAHARSOZLIK ME'MMORIY MUHITINI FUNKTSIONAL REJALASHTIRISHNI TASHKIL ETISH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7736420>
6. Sultanov, A. (2021, November). THE ROLE OF EDUCATIONAL EVENTS IN THE COOPERATION OF FAMILY, SCHOOL, COMMUNITY IN PROTECTING DISADVANTAGED STUDENTS FROM ALIEN IDEOLOGIES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 21-25).
7. Uktam, G. (2023). Shaping the Architectural Environment of Public Dining Buildings. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(3), 13-17.
8. Султанов, А. (2021). История И Современное Состояние Мечети Джами-Биби-Ханым (Биби-Ханум). *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 2(8), 157-163.

9. Sultanov, A. N. S. A. N. (2023). LEADING TRADITIONS IN THE FORMATION OF THE ARCHITECTURE OF MODERN MOSQUES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 4(1), 21-28.
10. Axtam, U., & Akram, S. (2021). The Eternity of Mentor and Her Pupil. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 2(8), 25-30.
11. Sultanov, A. (2022). ЗАМОНАВИЙ МАСЖИДЛАРНИ ЛОЙИХАЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ ВА ФУТУРОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(6), 248-255.
12. Hamidovich, Y. T. L. (2023). HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 723-727.
13. Turkman, E. (2011). Haykaltaroshlik.«Arxitektura» va «Dizayn» ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. *Samarqand: SamDAQI*, 2.
14. Мустафаевна Н.Д. (2023). ЭРОН, АФГ'ОНИСТОН ВА ХИНДИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АРХИТЕКТУРАСИ. *Финляндия Международный научный журнал образования, социальных и гуманитарных наук*, 11 (4), 482-487.
15. Shakarboy Eliboyevich O\_rinboyev, & Dilshoda Mustafayevna Nazarova. (2023). O'ZBEKİSTON SHAHARLARIDA ZAMONAVİY BINOLAR KO\_PAYGANLIGI SABABLI SHAHAR LANDSHAFTI VA İSTIROHAT BOĞ'LAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI. ME'MORCHILIK VA QURILISH MUAMMOLARI (ILMIY TEKNİK JURNALI), 1(1), 72–75. извлечено от <https://uzshaharsoz.uz/index.php/j/article/view/20>
16. Шакарбай Элибоеввич О'ринбоев и Туркман Эсанов. (2023). МЕСТО ЧЕРТЕЖНОЙ НАУКИ В ОБЛАСТИ АРХИТЕКТУРНО-ДИЗАЙНЕРСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy*, 11 (5), 455–460. Получено с <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/4051>.